



## RAQAMLI MAKONDA HUQUQIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.

**Beknazarov Asilbek**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov 1-kurs, [asilbekb835@gmail.com](mailto:asilbekb835@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17580181>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 11-noyabr 2025 yil

### KEY WORDS

*Kiberxavfsizlik, kiberjinoatchilik, kiberhujum, kibertahdid, kiberhimoya*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida vujudga kelayotgan huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalari yoritilgan. Axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida kibermakon xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, va kiberjinoatchilikka qarshi kurashish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Maqolada O'zbekiston qonunchiligi hamda xalqaro tajriba asosida, raqamli huquqiy tartibotning asosiy tamoyillari o'rganilgan.*

So'nggi yillarda global miqyosda kiberjinoatchilik sonining ortishi davlatlarning milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Shu sababli "kiber huquq" atamasi xalqaro va milliy qonunchilikda mustahkam o'rin egallamoqda. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasida kiber huquqning shakllanishi va rivojlanishini xalqaro me'yorlar bilan taqqoslab o'rganishdir.

Maqolada kiber huquq sohasiga oid milliy va xalqaro huquqiy manbalar, xususan O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni, Budapesht konvensiyasi hamda LexisNexis huquqiy ma'lumotlar bazasidagi maqolalar tahlil qilindi. Shuningdek, inLibrary.uz va yurkitob.uz elektron kutubxonalaridagi ilmiy maqolalar kontent-tahlil metodida o'rganildi.

LexisNexis Risk Solutions (2024) tomonidan e'lon qilingan global kiberjinoatchilik hisobotida so'nggi yillarda firibgarlik hujumlarining sezilarli o'sishi qayd etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yangi hisob (account) yaratish bosqichi kiberjinoatchilar uchun eng zaif nuqta bo'lib qolmoqda — barcha hujumlarning 35.9% aynan shu jarayonda sodir bo'lgan. Shuningdek, birinchi tomon firibgarligi (first-party fraud) holatlari ortib, umumiy firibgarlik holatlarining 35.9% ini tashkil qilmoqda. Mintaqaviy tahlillarga ko'ra, Osiyo-Tinch okeani (APAC) mintaqasida hujumlar darajasi o'tgan yilga nisbatan 37% ga oshgan, mobil brauzerlardagi xatar esa mobil ilovalarnikidan 4,9 baravar yuqori ekani aniqlangan. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchilarning mobil ilovalar orqali amalga oshiradigan harakatlari — ayniqsa moliyaviy operatsiyalar — kiberjinoatchilar uchun eng nishonli sohalardan biri bo'lib qolmoqda<sup>1</sup>. Ushbu global tendensiyalar natijasida davlatlar axborot xavfsizligi va raqamli huquqlarni tartibga soluvchi yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga majbur bo'ldilar. Bunday yangi huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi ularni normativ jihatdan tartibga solishni taqozo etdi. Shu bois, kiber huquq — axborot resurslari,

tizimlari va texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va himoya qilishga qaratilgan mustaqil huquq sohasi — shakllandi<sup>2</sup>. Shu bilan birga, kiber huquq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda xalqaro huquqiy manbalar alohida o'rin tutadi. Ular o'z ichiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalari, xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar, xalqaro konferensiya va uchrashuvlar natijasida ishlab chiqilgan konvensiyalar, hamda har bir davlatning milliy qonunchiligini oladi.<sup>3</sup> Jumladan O'zbekiston ham ulardan biri hisoblanadi va bu yo'nalishda hozirgacha faol ishlar olib bormoqda. Mamlakatimiz buning uchun "Axborotlashtirish to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida", "Elektron hukumat to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida", "Kiberxavfsizlik to'g'risida" va boshqa qonunlarni qabul qilgan. Bu hujjatlar qabul qilingandan so'ng yuqoridagi muammolarning hammasiga yechim topilgani yo'q, lekin ma'lum darajada bo'lsa ham tartibga solinmoqda. Bugungi kunda kiber huquq faqatgina ma'lum bir davlatlardagina emas, balki butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu muammoga yechim topish va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun davlatlar xalqaro hamkorlikni rivojlantirgan. Bularga misol qilib BMT, Yevropa Ittifoqi, YUNESKO kabilarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Yana bir muhim hujjat, ya'ni 2001-yil 23-noyabrda qabul qilingan Budapesht konvensiyasidir. U Fransiyaning Strasburg shahrida Yevropa Kengashi tomonidan Yevropa Kengashining kuzatuvchi bir qancha davlatlari Kanada, Yaponiya, Filipin, Janubiy Afrika, AQSHning faol ishtirokida ishlab chiqilgan va 2004-yil 1-iyuldan kuchga kirgan. 2020-yil dekabr holatiga ko'ra, uni 65 davlat ratifikatsiya qilgan.

Global axborot texnologiyalari davlat hokimiyati tashkiloti asosiy tamoyillarini o'zgartirib, davlat va biznes sohalari o'rtasidagi chegaralarni yo'q qilmoqda va ularning umumiy sohalarda masalan kiber huquq sohasida birlashuvga olib kelmoqda<sup>4</sup>. XX asr oxirlarida internetning ommalashuvi bilan birgalikda yangi turdagi jinoyatlar — kiberjinoyatlar paydo bo'ldi. Kiberjinoyatlar, jumladan firibgarlik, virus tarqatish va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash holatlari kengayib bordi. Dastlabki davrda mamlakatlarning huquqiy tizimlari bu kabi jinoyatlarga to'liq javob bera olmadi. LexisNexis Risk Solutions (2024) hisobotida qayd etilishicha, raqamli xizmatlarning kengayishi bilan kiberfiribgarlikning o'sish sur'ati ham ortib bormoqda; 2025-yilga borib global zarar 10,5 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda (Cybersecurity Ventures, 2024)<sup>5</sup>.

Shu sababli ko'plab davlatlar yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqdi. Xususan, O'zbekiston ham yuqorida sanab o'tilganidek, "Axborotlashtirish to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida", "Elektron hukumat to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" va "Kiberxavfsizlik to'g'risida" qonunlarini qabul qildi. Ushbu qonunlar axborot xavfsizligini ta'minlash hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Global miqyosda kiberhuquq dolzarb masalaga aylangani sababli xalqaro hamkorlik ham kuchaygan. Eng muhim xalqaro hujjatlardan biri — Budapesht konvensiyasi (2001) bo'lib, u Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va 65 dan ortiq davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan (Council of Europe, 2024). Shu bilan birga, ba'zi davlatlar

<sup>1</sup> LexisNexis Risk Solutions. (2024). *Cybercrime Report: Emerging Global Fraud Trends*. Retrieved from <https://risk.lexisnexis.com/global/en/insights-resources/research/cybercrime-report>

<sup>2</sup> R.R.Shakurov, M.M.Vohidov. "Kiber huquq – huquq sohasi sifatida" risola, Toshkent: O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022, 27 b.

<https://yurkitob.uz/ru/books/download?id=38>

<sup>3</sup> Saidboboyeva B., "Kiber huquqining fundamental tamoyillari", inLibrary, Yanvar 2025,

<https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/64150>

<sup>4</sup> Said Gulyamov, Sherzod Raimberdiyev, "Personal Data Protection as a Tool to Fight Cyber Corruption", IRSHAD, September 2023 DOI:[10.59022/ijlp.119](https://doi.org/10.59022/ijlp.119)

<sup>5</sup> Cybersecurity Ventures, 2024 <https://cybersecurityventures.com/top-5-cybersecurity-facts-figures-predictions-and-statistics-for-2021-to-2025/>

(Braziliya, Hindiston, Rossiya) uni imzolamagan, bu esa global hamkorlikka to'sqinlik qilmoqda. O'zimizning qonunchiligimizda esa kiber huquq sohasini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"(bundan buyon matnda "Kiber xavfsizlik to'grisida" deb yuritiladi)gi qonuni eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur qonun axborot tizimlarini himoya qilish, kiberhujumlarni oldini olish va texnik hamda tashkiliy chora-tadbirlarni belgilashga qaratilgan. Ushbu qonunda "kiberjinoyatchilik", "kibertahdid", "kiberxavfsizlik" va "kiberhujum" kabi asosiy tushunchalar kiritilgan. Kiber hujumlarni avj olishi, xakerlikning ko'payib borishi natijasida axborot xavfsizligi huquqiy va siyosiy asoslarini takomillashtirish va zamonaviylashtirishga bo'lgan zarurat paydo bo'ldi<sup>6</sup>. Ayni shu zaruratni o'z zimmasiga oladigan qonun "Kiberxavfsizlik to'grisida"gi qonundir. Ushbu qonundagi muhim terminlarni bilishimiz orqali qonunning ahamiyatini tushunib yetamiz. Bular:

kiberjinoyatchilik — axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi<sup>7</sup>;

kibertahdid — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar majmui;

kiberhujum — kibermakonda apparat, apparat-dasturiy va dasturiy vositalardan foydalangan holda qasddan amalga oshiriladigan, kiberxavfsizlikka tahdid soladigan harakat;

kiberxavfsizlik — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati;

kiberhimoya — kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ulardan himoya qilishga, kiberhujumlarning oqibatlarini bartaraf etishga, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborot tizimlari hamda resurslari faoliyatining barqarorligini va ishonchliligini tiklashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy iqtisodiy, muhandislik-texnik chora-tadbirlar, shuningdek ma'lumotlarni kriptografik va texnik jihatdan himoya qilish chora-tadbirlari majmui;

So'nggi yillarda kiber huquq inson faoliyatining ajralmas sohasi sifatida shakllanib bormoqda. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli ma'lumotlar almashinuvi jadal rivojlanayotgan bugungi davrda, ularni huquqiy tartibga solish va xavfsizlikni ta'minlash global ehtiyojga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlar sonining ortishi, firibgarlik va ma'lumotlar o'g'riligi holatlarining kengayishi (LexisNexis Risk Solutions, 2024) davlatlarni yangi normativ-huquqiy mexanizmlarni joriy etishga majbur qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kiber huquq axborot makonida inson, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiluvchi muhim huquq sohasi sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu sohada muhim qonunlar — "Kiberxavfsizlik to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida" — qabul qilingan bo'lib, ular milliy kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlashda asosiy o'rin tutmoqda. Biroq xalqaro standartlar, jumladan Budapesht konvensiyasi (Council of Europe, 2001) tamoyillarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish jarayoni hali to'liq yakunlanmagan. Kiber huquqning yanada samarali amal qilishi uchun uch yo'nalishda faoliyat olib borish muhim: birinchidan, xalqaro huquq me'yorlarini milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish; ikkinchidan, raqamli xavfsizlikni

<sup>6</sup> O.O.Aliyev, "O'zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi", Ilmiy axborotnoma, 2023-yil 2-son 21-p. <https://axborotnoma.uz/research/2199/>

<sup>7</sup> Shokirov B. , "Kiberjinoyatchilikning ijtimoiy va iqtisodiy xavflari", in-academy.uz, 43-p. <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/download/86206/87956/115499>

ta'minlovchi texnologik infratuzilmani kuchaytirish; uchinchidan, fuqarolarning kiber huquqiy madaniyatini oshirish. Shu tarzda, kiber huquq nafaqat kiberjinoyatlarga qarshi kurashish vositasi, balki inson huquqlarini raqamli makonda himoya qiluvchi, huquqiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik tizim sifatida e'tirof etilishi lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. LexisNexis Risk Solutions. (2024). Cybercrime Report: Emerging Global Fraud Trends
2. Cybersecurity Ventures, 2024
3. Said Gulyamov, Sherzod Raimberdiyev, "Personal Data Protection as a Tool to Fight Cyber Corruption"
4. "Kiber huquq – huquq sohasi sifatida" risola tuzuvchilar R.R.Shakurov, M.M.Vohidov.
5. "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun
6. "Budapesht konvensiyasi" , 2001-yil 23-noyabr (Strasburg, Fransiya)
7. O.O.Aliyev, "O'zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi"
8. Saidboboyeva B. , "Kiber huquqining fundamental tamoyillari"
9. Kalbayeva Eldora, "Jinoyat kodeksi" da kiber-o'g'irlik uchun javobgarlik
10. Shokirov, B. , "Kiberhuquq: zamonaviy texnologiyalar davridagi huquqiy chaqiriqlar va himoya mexanizmlari"
11. 11. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-547-son, 02.07.2019).
12. 12. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmon
13. 13. The Law Society Gazette (2021), "Mishcon de Reya fined for client data breach" article
14. 14. EU GDPR 2018, Data Protection Act 2018